

## “HAYOT” KONTSEPTINI IFODALOVCHI TIL VOSITALARINING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

**Toshtemirov Elyor Nuraliyevich**

*Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi*

Har bir fan tarixida yuksalish bo'lganidek, inqiroz bosqichlari ham bo'lishi muqarrar. Bunday o'zgarishlarni yuzaga kelishini sababi olimlardan o'rganilayotgan ob'ektga yangicha nigoh bilan qarash, avvalgilardan farqlanadigan nuqtai nazar bilan yondashuvni talab qiladi. Tilshunoslikdagi inqirozning asosiy sababi axborot texnologiyalarining rivoji bilan bog'liqdir.

Til tizimini va nutqiy faoliyat mahsuli bo'lgan matn qurilishini shu paytgacha filologik nuqtai nazardan tahlil qilib kelayotgan bu fan doirasi endilikda idrok etish, tushunish va tahlil qilish faoliyatlariga oid tushuncha va kategoriylar bilan kengaydi. Natijada tilshunoslikning mantiq, psixologiya, bilish nazariyasi kabi kognitiv fan sohalari bilan ish ko'rish yanada kuchaydi. Bunday hamkorlik sinergetika deb atalib, bir tomondan, tilshunoslikni inson tafakkur faoliyati muammolari bilan shug'ullanuvchi kognitologiya fani tarmog'iga kiritgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, tilshunoslikning o'zida yana bir soha - kognitiv lingvistika sohasi bilan boyitdi.

Kognitologiya tafakkur haqidagi fan bo'lib, so'zsiz, lingvistik tahlil - kognitiv tahlilning bir turi, uning ma'lum bir ko'rinishida namoyon bo'lisdidir. Kognitiv tilshunoslik atamasining mazmuni inglizcha cognitive bilishga oid so'zi bilan bog'liq. Ma'lumki, dunyoni, voqelikni va hayotni bilish va uni idrok etish u darajada oson hodisa emas.

Tafakkur faoliyati jarayonida yuzaga keladigan bilim turli ko'rinish va xususiyatga ega bo'lib, bu farq dastlabki o'rinda bilimning qay yo'sinda va qanday maqsadda o'zlashtirilishi bilan bog'liqdir. Lisoniy bilim ma'lum ijtimoiy guruh madaniyati uchun xos bo'lgan me'yorlarga qanchalik darajada mos kelishini bildiradi. Chunki, til madaniy boylikdir. Bu bilim insonning ongli faoliyati zaminida shakllanadi va bu faoliyat amalga oshishida muhim ro'l o'ynaydi. Shuning uchun lisoniy bilim lingvokognitiv tahlil sifatida tanlanadi. Kontsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi.

Kontsept - mental tuzilma bo'lib, u turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar umumlashmasidir. Shunday kontseptlardan biri “hayot” kontseptidir. Bu kontsept universal tabiyatga ega bo'lib, ham lisoniy, ham kognitiv kategoriya bo'lib sanaladi. “Hayot” kontseptini lingvokognitiv jihatdan tahlil qilsak; umr, turmush, jarayon, faoliyat, harakat, tiriklik, yashamoq, mavjudlik, borliq, umrguzaronlik, kurash va hokazolarni o'rganib chiqamiz.

“Hayot” kontseptini sintaktik struktural belgilari uni boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishganda namoyon bo'luvchi va otni aniqlab keluvchi artikl, sifat, sifatdosh, son, ko'rsatish, gumon va egalik olmoshlaridir. Masalan: The next life (oxirat), a long life (uzoq umr), early life (bolalik), adult life (balog'at davri), in later life

(xayotning so'nggi yillari), city life (shahar xayoti), village life (qishloq xayoti), prison life (qamoqdagi xayt), married life (tur mushdan keyingi xayot), see life (xayotni achchig'ini biladigan), a happy life (baxtli xayot), a normal life (meyordagi xayot), a hard life (ogir xayot).etc.

Ingliz tilida lifeless va o'zbek tilida hayotiy so'zlar leksik birliklar bilan ifodalanadi. Qiyoslanayotgan tillarda "hayot" kontsepti orqali bir qator kommunikativ - pragmatik ma'nolar ifodalanadi. Bunday hollarda tilning turli xil sathlari vositalari qo'llaniladi va ular o'ziga xos alohida tizim tashkil etadilar. Shuning uchun mazkur kontseptning maydon tabiatiga ega ekanligini e'tirof etish o'rinnlidir.

Tilshunoslikda semantik yoki tushuncha maydoni haqidagi fikrlar Vilgelm fon Gumboldning tilning ichki formasill haqidagi qarashlari negizida XX- asrning boshlarida paydo bo'ldi. A.Sobirov «maydon» haqida shunday fikrlarni bildiradi.

Ma'lum bir arxisema (umumiy sema) asosida birlashuvchi so'z va iboralar majmuiga semantik yoki tushuncha maydoni deyiladi. "Hayot" kontseptini tushuncha maydonini hayot kechirdi, yashadi, umr ko'rdi, dunyo yuzini ko'rdi, dunyoga keldi, hayotni boshidan o'tkazdi, sakson yoshni qoraladi, tur mush kechirdi, yetmish yoshni bosib o'tdi so'zlar tashkil etadi. Ingliz tilida: came into the world (dunyoga keldi), to arrive (tug'ilmoq), to go through life (hayot kechirmoq), to be born (tug'ilmoq) va hokazo.

Bundan tashqari "hayot" kontseptini sentensema, ya'ni gap shaklida ifodalanishi quyidagicha bo'ladi: 1) U urushda hayotini qurban qildi; 2) rasmni hayotiy chizish kerak; 3) bu hayot - mamot masalasi. 1) Ne laid down his life during the war; 2) You should draw from life; 3) A book that brings the subject to life. 4) You should expect him to get life for such a serious crime; (Siz uni bunaqangi jiddiy jinoyati uchun o'lim jazosiga xukm qilinishini kutgan bo'lsangiz kerak). 5) Life begins at forty (Hayot 40 yoshdan boshlanadi); life goes on (hayot davom etadi); life is too short (hayot juda qisqa); she is a woman in my life (y mening sevgan ayolim); not on my life (aslo); such is life (hayot shunaqa); this is the life (mana buni hayot desa bo'ladi).

Yuqorida ko'rinish turibdiki, sentensema bir necha so'zlardan iborat bo'lib, ular birlashgan xolatda bir ma'noni keltirib chiqaradi. Mashxur ingliz yozuvchisi V.Shekspir hayotni shunday ta'riflagan: «Kurish va sezish, bu mavjud bulmoqlikdir, muloxaza yuritish esa yashash demakdir». Albatta, inson kurish, sezish va nafas olish orkali xayot ekanligini xis etadi. Orzu qilish unga hayotga umid bag'ishlaydi. Hayot so'zi til birliklarida xam ishtirok etib, turli xil ma'nolarni ifodalab keladi.

Yuqoridagi tahlillarimizdan ko'rinish turibdiki, qiyoslanayotgan tillarda "hayot" kontsepti quyidagicha ifodalanishi mumkin ekan. Jumladan: Hayot kontseptini qo'shma so'zlar shaklida ingliz tilida ifodalanishi: Lifebelt, lifeblood, lifeboat, lifeboy, lifeguard, lifejacket, lifeline, lifesaver, lifespan (umr), lifetime. Sintaktik birliklar (sintaksemalar) bilan ifodalanishi: 1) to spend the life; 2) risk smbs life; 3) put smbs life at risk; 4) lose a life; 5) to get life; 6) to bring smbs to life; 7) get a life; 8) to lay down smbs life; 9) to risk life and limb; 10) to take smbs life; 11) to take smbs own life, etc. O'zbek tilida: 1) hayotini sarflamoq; 2) hayotini xavf ostiga qo'yamoq; 4)

qo'ldan boy bermoq (o'yinni); 5) o'lim jazosini olmoq; 6) kimnidir hayotga qaytarmoq; 7) zeriktirmoq, jonga tegmoq; 8) hayotini qurban qilmoq; 9) jonini fido kilmox; 10) kimnidir jonini olmoq; 11) o'z hayotiga qasd qilmoq, va b.

Demak, aytishimiz mumkinki, qiyoslanayotgan tillarda "hayot" kontsepti orqali bir qator kommunikativ - pragmatik ma'nolar ifodalanadi. Bunday hollarda tilning turli xil vositalari qo'llaniladi va ular o'ziga xos alohida tizimni tashkil etadi. Shuning uchun, ushbu kontseptni maydon tabiatiga ega ekanligini ta'kidlab o'tish joizdir. Ya'ni "hayot" kontsepti kontseptual maydonga ega bo'lib, ushbu maydonning yadrosini yirik sintaktik vositalar - sintaksemalar, ya'ni sodda va qo'shma sentensemalar tashkil etsa, frazemalar uning markazini tashkil etadi. Ingliz va o'zbek tillarida "hayot" kontsepti uni ifodalovchi sodda va qo'shma sentensemalar, leksemalar va frazemalar orqali, mazkur tillarning umuminsoniy rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq sathlararo (morfologik, leksik, sintaktik) vositalar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Sobirov A. O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. Toshkent, 1998
2. Nurmonov A. O'zbek tili leksikologiyasining shakllanishi va takomillashuvi. Toshkent, 2001 yil
3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax. 2006 yil